



UYG'URLAR: YO'QOLIB BORAYOTGAN MADANIYATMI?

Xolmurodov Salimbek Yuldoshovich
Qo'qon davlat universiteti Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola uyg'ur xalqining tarixiy taraqqiyot yo'li va uning Sharq sivilizatsiyasida tutgan o'rnini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda Uyg'ur xoqonligi davridagi yuksak madaniy yuksalishdan tortib, bugungi kundagi etnik o'ziga xoslikni saqlab qolish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'zbek va uyg'ur xalqlari o'rtasidagi madaniy va lisoniy yaqinliklar qiyosiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uyg'ur xalqi, tarixiy taraqqiyot, sharq sivilizatsiyasi, uyg'ur xoqonligi, etnik o'ziga xoslik, madaniy yaqinlik, O'zbek-uyg'ur aloqalari, lisoniy mushtaraklik

Аннотация

Данная статья посвящена анализу исторического пути развития уйгурского народа и его роли в восточной цивилизации. В ней рассматриваются вопросы высокого культурного подъема в период Уйгурского каганата, а также проблемы сохранения этнической самобытности в современную эпоху. Кроме того, проводится сравнительный анализ культурной и языковой близости узбекского и уйгурского народов.

Ключевые слова: уйгурский народ, историческое развитие, восточная цивилизация, Уйгурский каганат, этническая самобытность, культурная близость, узбекско-уйгурские связи, языковая общность.

Abstract

This article is devoted to analyzing the historical development of the Uyghur people and their role in Eastern civilization. It examines the significant cultural flourishing during the period of the Uyghur Khaganate, as well as modern issues concerning the preservation of ethnic identity. Furthermore, the article provides a comparative analysis of the cultural and linguistic affinities between the Uzbek and Uyghur peoples.

Keywords: Uyghur people, historical development, eastern civilization, uyghur khaganate, ethnic identity, cultural affinity, uzbek-uyghur relations, linguistic commonality.

Kirish. Insoniyat sivilizatsiyasi beshigi bo'lgan Markaziy Osiyo tuprog'i asrlar davomida o'nlab buyuk xalqlar va davlatlarning shakllanishiga guvoh bo'lgan. Ana shunday qadimiy ildizga va boy madaniy merosga ega xalqlardan biri, shubhasiz,



uyg'urlardir. Buyuk Ipak yo'lining markaziy nuqtalarida joylashgan bu xalq nafaqat savdo-sotiq, balki ilm-fan, me'morchilik va san'at sohasida ham butun Sharq olamiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Uyg'urlarning tarixi — bu yuksak yuksalishlar, qudratli davlatchilik an'analari va og'ir sinovlar silsilasidir. VIII asrda vujudga kelgan Uyg'ur xoqonligi o'z davrining eng ilg'or davlatlaridan biri sifatida tanilib, Markaziy Osiyoda o'troq hayot tarzi va shaharsozlikning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Bugungi kunda ham uyg'ur xalqi o'zining betakror tili, urf-odatlar va jahon madaniyati durdonasi sifatida tan olingan musiqiy merosi bilan turkiy xalqlar oilasining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada biz uyg'ur xalqining tarixiy taraqqiyot yo'liga nazar tashlaymiz, ularning o'ziga xos etnik qiyofasini saqlab qolishdagi omillarni tahlil qilamiz va o'zbek-uyg'ur xalqlari o'rtasidagi asriy do'stlik, madaniy-lisoniy mushtaraklik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Adabiyotlarni tahlili. Ushbu maqolani kirish qismida yozilgan mal'umotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, L.Gumilyovning "Qadimgi turklar" asarida Uyg'ur xoqonligining oltin davri haqida so'z yuritilgan bo'lib, quyidagi 3 ta nuqtani qisqa qilib tushuntiradi: Hokimiyat almashinuvi: 744-yilda ikkinchi Turk xoqonligi qulagach, uyg'urlar Markaziy Osiyoda yetakchi siyosiy kuchga aylangani va Peylo (Kullug Bilge xoqon) asos solgan yangi davlatning kuchayishi Manixeylik va Madaniyat: Uyg'urlarning manixeylik dinini qabul qilishi ularning turmush tarzini o'zgartirgani — jangovarlikdan ko'ra madaniyat, shaharsozlik va savdo-sotiqqa ko'proq e'tibor qaratila boshlangani. Xitoy bilan ittifoq: Uyg'urlarning Xitoydagi An Lushan qo'zg'olonini bostirishda ishtirok etgani va buning evaziga ulkan iqtisodiy foyda (ipak savdosi) ko'rganligi bayon etilgan. S.G.Klyashtorniyni ushbu asosan uyg'ur runik yozuvlari va ularning tarixiy hujjat sifatidagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Muallif bu yerda epigrafik yodgorliklar (toshga bitilgan yozuvlar) orqali uyg'ur tarixini tiklash masalasini ko'taradi. Selenga bitiktoshi (Moyun-chur bitigi): Klyashtorniyni ushbu sahifalarda 759-yilda o'rnatilgan mashhur Moyun-chur bitiktoshini tahlil qiladi. Bu yozuvda Uyg'ur xoqonligining tashkil topishi va g'alabalari birinchi shaxs nomidan hikoya qilinadi. Etnik tarkib: Muallif bitiklardagi "To'qqiz o'g'uz" va "O'n uyg'ur" atamalarining ma'nosini tushuntiradi. Ularning o'zaro munosabatlari va qabilaviy ittifoqi qanday shakllanganini ilmiy asoslab beradi. Davlat boshqaruvi: Bitiktoshlardagi ma'lumotlarga tayanib, uyg'ur xoqonlarining unvonlari, davlat tuzilishi va harbiy tashkiloti haqida faktlar keltiriladi. Manixeylik aks-sadosi: Klyashtorniyni yozuvlarda manixeylik dini ta'sirida o'zgargan ijtimoiy atamalar va madaniy qatlamlarni ko'rsatib o'tadi. Muallifning asosiy xulosasi shundan iboratki,



ushbu maktubot yodgorliklari uyg'urlar nafaqat jangchi, balki o'z tarixini toshlarga muhrlab qoldirgan yuksak savodxon xalq bo'lganini isbotlaydi.

L.A.Chvyrning ushbu asaridagi uyg'urlarning etnik shakllanish jarayoni (etnogenezi) va ularning Sharqiy Turkistondagi qadimiy ildizlariga bag'ishlangan. Muallif bu qismda uyg'urlarni shunchaki ko'chmanchi emas, balki mintaqaning tub joy aholisi bilan qorishib ketgan murakkab etnos sifatida tasvirlaydi. Etnik qatlamlar: Chvyr uyg'urlarning shakllanishida ikki asosiy qatlamni ko'rsatadi: qadimiy hind-eron (saka-toxar) tilli o'troq aholi va keyinchalik kelgan turkiy qabilalar.

Muallifning fikricha, hozirgi uyg'ur xalqi mana shu ikki madaniyatning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Muallif Sharqiy Turkistonning geografik o'rnini (Qashqar, Turfon, Xo'tan vohalari) uyg'ur xalqining hayot tarzini qanday belgilab bergani tushuntiriladi. Har bir voha o'ziga xos etnik va madaniy xususiyatga ega bo'lgani, ammo umumiy "uyg'ur" etnosiga birlashgani bayon etiladi. Muallif "Uyg'ur" atamasining evolyutsiyasiga to'xtalib o'tib ushbu atama turli davrlarda turlicha ma'no anglatganini tahlil qiladi.

Dastlab bu siyosiy ittifoq nomi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik muayyan bir xalqning umumiy nomiga aylangani ko'rsatiladi. Islom dinigacha bo'lgan davrdagi buddaviylik, manixeylik va nasroniylik elementlarining uyg'ur madaniyatiga va ularning tashqi qiyofasiga (antropologiyasiga) ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Muallif sahifalarda uyg'urlarni Markaziy Osiyodagi eng qadimiy o'troq dehqonchilik va shahar madaniyatiga ega xalqlardan biri sifatida ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Abdurahmon Qayyumov uyg'ur ijodkorlarining islomgacha va ilk islom davridagi faoliyatini tahlil qiladi. Muallif uyg'urlarning o'ziga xos alifbosi bo'lgani va bu yozuvda diniy hamda dunyoviy asarlar yaratilganini ta'kidlaydi. Xususan, Turfon va Dunxuan topilmalaridagi adabiy parchalar tahlil qilinadi. "Oltun yoruq" va "Kuan-shi-im pular": Ushbu sahifalarda qadimiy uyg'ur tiliga tarjima qilingan yoki o'sha tilda yozilgan yirik adabiy-falsafiy asarlar haqida so'z boradi.

Asosiy qism Uyg'urlar – xitoy bosqini ostida qolgan turk xalqlaridan,, XXRdagi Sharqiy Turkiston tub joy aholisi, soni 13.5 million. Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Hindiston, Afg'oniston va Pokistonda yashaydi. Turk tilining Uyg'ur lahjasida gaplashadi. Dindorlari, asosan, sunniy musulmonlar. Yapon (Yutyaxeng), fransuz (Klaprot) olimlari fikricha, „uyg'ur“ atamasi miloddan avval 3—2-asrlardan ma'lum. U. Etnogenezi Xitoy manbalarida 4—5 ming yil avval tilga olingan „di“(Turk)larning „chidi“(qizil di – janubiy turk) ga borib taqaladi. Xitoyning shimolida mavjud bo'lgan Chidi davlati mil.avv. 594 yil Szin (Jin) xonligi tomonidan tugatilgach, chidilar shim.ga ketishga majbur bo'lishgan. U. Hun qabilaviy ittifoqi



(mil. Av. 3-asr – mil. 3—4-asrlar)da muhim rol o‘ynaganlar. Mil. 5—8-asrlarda U. Jujan(Avar) xonligi, keyinchalik Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. 7-asrga qadar Uyg‘urlar tarkibida yog‘liqor (xon avlodi), quturg‘ur, turlamveybur, buqosqir, ovchag‘, xazarqasar, xo‘g‘ursu, yag‘mo, ayovir kabi 9 qabila mavjud bo‘lgan. Keyinchalik ularga Sirdaryoning yuqori qismi (Yassi daryosi) bo‘yida yashagan adiz qabilasi qo‘shilishi bilan 10 uyg‘ur ittifoqi shakllangan. 7—9-asrdagi manbalarda 15 uyg‘ur qabila uyushmasi [baku, hun, bayirg‘u, tungro, sijiye, chibni, izgil(sije), basmil (bashimi), qarluq (gelulu), sir, tardush, tuva, quvurqon, barsuk, qirg‘iz] qayd etilgan. Uyg‘urlar mamlakati qadimiy madaniyat o‘choqlaridan hisoblanadi, bu hududda ko‘plab qadimiy davlatlar, shaharlar mavjud bo‘lgan. Uyg‘urlar qadimdan turli yozuvlardan (26 ta) foydalangan. Ular 5—6-asrlardan boshlab maxsus uyg‘ur yozuvi ishlata boshlashgan.

Qadimiy uyg‘ur musiqa san‘ati Xitoy musiqasiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Uyg‘ur xalqi musiqasining gavhari bo‘lgan 12 maqom 16-asrda Omonnisoxon tomonidan tartibga solingan. U. Hayotida tosh, suyak, kumush, mis va temirdan turli zebziynat buyumlari yasash rivojlangan. Ular qadimdan jun, ipak, paxtadan maxsus dastgohlarda mato to‘qishgan. Milodning boshlarida (3-asr) ular tomonidan ishlab chiqarilgan qog‘oz, arxeologik qazishmalar natijasida topilgan qog‘oz nusxalarining eng qad.si hisoblanadi.

Uyg‘urlar yashaydigan Turfon vohasi dunyodagi eng issiq va quruq joylardan biri bo‘lishiga qaramay, ular qadimdan noyob “kriz” (yer osti suv yo‘llari) tizimini yaratganlar. Bu tizim suvni tog‘ etaklaridan yer osti tunnellari orqali bug‘lanib ketishdan asragan holda dalalarga olib keladi. Turfon krizlarining umumiy uzunligi 5000 kilometrdan oshadi.[6.112–115.b]. Uyg‘ur xonadonlarida ayvon markaziy o‘rin tutadi. Ular yog‘och o‘ymakorligi bilan nafis bezatilgan ustunlar va rang-barang shiftlar bilan ajralib turadi.[2.301–305.b]. Devorlarga geometrik va islmiy naqshlar berishda o‘ziga xos mahorat maktabi mavjud. Devorlardagi naqshlarda asosan o‘simliksimon (islmiy) va geometrik (girihi) shakllar ishlatiladi. Bu naqshlar “ganch” (gips) ustida o‘yiladi yoki rangli bo‘yoqlar bilan chiziladi.[5.12–35.b]. Kriz tizimi bir-biri bilan bog‘langan vertikal quduqlar va yer osti gorizontallardan iborat. U suvni quyi oqimga o‘z oqimi (gravitatsiya) bilan yetkazadi. Bu suvni nafaqat bug‘lanishdan, balki cho‘l qumlari bilan ifloslanishdan ham himoya qiladi.[4.62-75. b]

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, uyg‘urlar — Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishida o‘chmas iz qoldirgan, tarixiy sinovlarda o‘zligini saqlab qolgan buyuk xalqlardan biridir. Ularning miloddan avvalgi asrlarga borib taqaluvchi etnogenezi va



qudratli Uyg‘ur xoqonligi davridagi yuksalishi turkiy davlatchilik an‘analarining poydevori bo‘lib xizmat qildi.

Uyg‘ur xalqi jahon madaniyatiga faqatgina “O‘n ikki maqom” kabi musiqiy durdonalarni emas, balki Turfon krizlari kabi muhandislik mo‘jizalarini, qadimiy qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasini va 26 xil yozuvdan foydalangan holda boy yozma merosni ham taqdim etgan. Ularning an‘anaviy me‘morchiligi, nafis ayvonlari va islmiy naqshlari bugungi kunda ham Sharq san‘atining eng yorqin namunalaridan bo‘lib qolmoqda.

Bugungi globallashuv davrida uyg‘ur madaniyatini o‘rganish va asrab-avaylash nafaqat ushbu xalq, balki butun turkiy dunyo va jahon hamjamiyati uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbek va uyg‘ur xalqlarining mushtarak ildizlari, tili va madaniy o‘xshashligi esa bu boy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda asosiy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild (To‘yxona — Gulyuz). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 53-54-betlar.
2. UNESCO. History of Civilizations of Central Asia. Volume IV: The age of achievement: A.D. 750 to the end of the fifteenth century. – Paris: UNESCO Publishing, 1998. – pp. 301–305.
3. Gumilyov L. N. Qadimgi turklar. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1982. – 250-285-betlar.
4. Чвырь Л. А. Уйгуры Восточного Туркестана (очерки материальной культуры). – Москва: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1990. – 62–75-betlar.
5. Qayyumov A. Uyg‘ur adabiyoti va san‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980. – 12–35-betlar.
6. Мурзаев Э. М. Очерки природы Синьцзяна. – Москва: Географгиз, 1966. – 112–115-betlar.
7. Klyashtorniy S. G. Markaziy Osiyoning qadimiy turkiy maktubot yodgorliklari. – Sankt-Peterburg: 2003. – 82–105-betlar.